

HORIJIY DAVLATLARNING XARBIY TA'LIM MUASSASALARIDA CHEGARA QO'SHINLARI TAKTIKASI YO'NALISHI BO'YICHA MUTAHASSISLARINI TAYYORLASH

UMAROV Raxmat Nigmatovich

Qurolli Kuchlar Akademiyasi

kafedrasi boshlig'ining o'rinosi

Annotatsiya: Ushbu maqolada xorijiy davlatlarning harbiy ta'limga muassasalarida chegara qo'shnlari taktikasi yo'nalishi bo'yicha mutaxassislarini tayyorlash jarayonlari, chegara qo'shnlari bo'linmalari uchun mutaxassislarini tayyorlashdagi tajribalar, xorijiy davlatlardagi chegarachi-mutaxassislarini tayyorlash jarayonlarining ham ijobiy, ham salbiy tomonlari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Xavfsizlik, xavf-xatar, chegarachi, chegara taktikasi, taktik qo'mondonlik, kadet, chegarani qo'riqlash.

Аннотация: В данной статье рассмотрены процессы подготовки специалистов по тактике пограничных войск в военных учебных заведениях зарубежных стран, опыт подготовки специалистов для пограничных подразделений, а также положительные и отрицательные стороны подготовки пограничников в зарубежных государствах.

Ключевые слова: Безопасность, угрозы, пограничник, тактика пограничных войск, тактическое командование, кадет, охрана границы.

Abstract: This article examines the training processes of border troops tactics specialists in military educational institutions of foreign countries, the experience of training specialists for border units, as well as the positive and negative aspects of training border specialists abroad.

Keywords: Security, threats, border guard, border tactics, tactical command, cadet, border protection.

KIRISH

Globallashuv davom etayotgan va xalqaro munosabatlarning butun tizimi o‘zgarib borayotgan sharoitlarda, jahondagi harbiy-siyosiy vaziyat xalqaro va mintaqaviy xavfsizlikka xavf-xatar hamda tahdidlar ko‘lami kengayib borayotganligi, geosiyosiy qarama-qarshilikning kuchayishi, mojarolar va tang vaziyatlarni kuch ishlatib hal etishga bo‘lgan yondashuvning ustunlik qilishi, kuch ishlatish, shu jumladan ommaviy qirg‘in qurolini qo‘llash ehtimoli oshganligi, xalqaro terrorizm va ekstremizm hurujlarini faollashganligi, axborot makoni va kibermakonda o‘zaro kurash kuchayganligi bilan tavsiflanadi.

ASOSIY QISM

Hozirgi kunda Markaziy Osiyodagi vaziyatga terrorizm, ekstremizm, narkotrafik va transchegaraviy jinoyatchilikning saqlanib turgan xavf-xatarlari va tahdidlari salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Afg‘onistondagi noqonuniy qurolli tuzilmalar faoliyati mintaqaga xavfsizligiga alohida xavf solmoqda. Sezilarli xavf-xatar to‘g‘dirayotgan mazkur tahdidlar, qiyofasini butunlay o‘zgartirgan xalqaro mojarolar va informatsion-psixologik xurujlar, avvalo davlatimiz chegaralarini mustahkamlashni, bu borada olib borilayotgan ishlarning samaradorligini oshirishni taqozo etmoqda.

Bu borada chegarachi harbiy xizmatchilarining o‘z proffesional, nazariy va amaliy bilimlarini uzliksiz oshirib borishi, xizmatni o‘tash va jangovar faoliyat davomida zarur bo‘ladigan tajriba va ko‘nikmalarni egallashi uchun ta’lim jarayonlarini tashkil etish bo‘yicha ilg‘or xorijiy tajribalarni o‘zlashtirish ham muhim ahamiyatga ega.

Quyida ayrim davlatlarda chegarachi-mutaxassislarini taktik jihatdan tayyorlash jarayoni haqida so‘z boradi. Rossiya Federatsiyasi bugungi kunda dunyodagi eng katta Davlat chegaralariga (*18 davlat bilan chegaradosh bo‘lib, umumiylarini chegaralarini*

uzunligi 61 000 km dan ortiq bo‘lib, shundan: 38 800 km suvli sohalar) ega bo‘lgan davlatlardan biridir. Latviya Respublikasining sharqiy chegarasi esa, Yevropa Ittifoqining umumiy tashqi chegarasi bo‘lib qolgan. Amerika Qo‘shma Shtatlari esa, 9500 km dan ziyod quruqlikdagi Davlat chegarasiga ega bo‘lib, uning Meksika bilan Davlat chegarasidan kuniga besh-olti ming kishigacha bo‘lgan shaxslar noqonuniy kesib o‘tishga harakat qiladi, davlat chegarasi orqali bir necha yuz kilogramgacha narkotik moddalarni yashirincha olib o‘tishga urinishlar sodir bo‘lib turadi.

Rossiya Federatsiyasi

Ushbu mamlakatda chegarachi bo‘linmalari uchun mutaxassislarni tayyorlash tajribasi uzoq yillarga borib taqaladi. Sobiq Sovet Ittifoqi parchalangandan so‘ng, ilgari mavjud bo‘lgan “Moskva Oliy chegarachilar bilim yurti” va “Golitsino Oliy chegarachilar bilim yurti” o‘rniga, Rossiya Federatsiyasida “Moskva Chegara instituti”, “Golitsino Chegara instituti”, “Xabarovsk Chegara instituti” va “Kaliningrad Chegara instituti”, hamda Moskva shahridagi Federal Xavfsizlik Xizmati Chegara Akademiyasi tashkil etildi.

Chegara institutlariga sog‘lig‘i tufayli yaroqli va xavfsizlik xizmati talablariga javob beruvchi o‘rta (to‘liq) umumiy ma’lumotga yoki o‘rta kasb-hunar ma’lumotga ega bo‘lgan, muddatli harbiy xizmatni o‘tamagan 16 yoshdan 22 yoshgacha, harbiy xizmatni o‘tayotgan (o‘tagan) 24 yoshgacha bo‘lgan Rossiya fuqarolari qabul qilinadi.

Institutga qabul jarayonida kasbiy tanlovdan, jismoniy tayyorgarlik sinovlaridan o‘tishi va quyidagi fanlardan yozma imtihon topshirishlari zarur:

- ijtimoiy mutaxassislikka (“Huquqshunoslik” yoki “Psixologiya”) topshiruvchilar – rus tili (bayon yozish), mutaxassislik bo‘yicha fan, tarix, jamiyatshunoslik;
- texnik mutaxassislikka (“Radiotexnika”) topshiruvchilar – fizika, mutaxassislik bo‘yicha fan, matematika, rus tili (bayon yozish);

- tezkor xodimlarni tayyorlov yo‘nalishi bo‘yicha topshiruvchilar – rus tili (bayon yozish), mutaxassislik bo‘yicha fan, chet tili, jamiyatshunoslik.

Imtihonlar 10 ballik tizim bo‘yicha baholanadi, 3 va undan kam ball olganlar o‘qishga qabul qilinmaydi. 4 yil o‘qish davomida kursantlar harbiy va chegara taktikasi, jismoniy tayyorgarlik, chet tillari, qonunchilik va huquq, siyosatshunoslik, iqtisodiyot, psixologiya, kriminalistika, topografiya, informatika, otish tayyorgarligi, aloqa vositalari, nizomlar, etika, estetika kabi umumta’lim va maxsus fanlarni o‘rganishadi. Alohida darslar chegara nazorati bo‘yicha bilimlarni (qalbaki hujjatlarni aniqlash, inson yuzining o‘ziga xosliklari va turli fotosuratdagi o‘zgarishlarini payqash) hamda inson va harbiylar psixologiyasini o‘rgatishga qaratilgan.

Latviya Respublikasi

Latviyada chegarachi-mutaxassislarni tayyorlash Rezakne shahridagi Chegarachilar maktabi va Chegarani qo‘riqlash davlat kolledjida amalga oshiriladi (*Valsts robezsardzes koledza – RS Kolledji*).

Chegarachilar maktabida o‘qish bir yilni tashkil qiladi va ushbu matabnini bitirganlar RS Kolledjiga qabul qilinadi va ikki yil davomida o‘qishadi. Ya’ni, Latviyada chegarachi-mutaxassislarni tayyorlashning uch yillik dasturi yo‘lga qo‘yilgan.

Chegarachilar maktabiga o‘rtacha ma’lumotga ega bo‘lgan, sog‘ligi tufayli yaroqli va RS xizmati talablariga javob beruvchi 18 yoshdan 27 yoshgacha Latviya fuqarolari qabul qilinadi.

RS Kolledjiga esa, o‘rtacha ma’lumotga ega va xizmati mobaynida o‘zini namunali ko‘rsatgan chegarachilar qabul qilinadi.

O‘qishga kirish shartlari har yili RS qo‘mondorligi tomonidan tasdiqlanadi.

O‘quv dasturini o‘zlashtirish davomida kadetlar jismoniy tayyorgarlik, harbiy va chegara taktikasi, chet tillari, qonunchilik va huquq, kriminalistika, topografiya,

informatika, otish tayyorgarligi, aloqa vositalari, nizomlar, etika, psixologiya kabi umumta'lim va maxsus fanlarni chuqur o'rghanishadi.

Amaliy darslar kolledj dala-o'quv maydonida o'tkaziladi. Dala-o'quv maydonida Latviya bilan chegaradosh barcha mamlakatlar chegaralarining o'ziga xosligi, mavjud davlatlar chegaralari orqali o'quv o'tkazish punktlari, o'q otish va texniklarni ekspluatatsiya qilish maydonchalari mavjud.

Amerika Qo'shma shtatlari.

AQShda chegarachi-mutaxassislarini (CBP officer – Bojxona va Chegara patruli ofitserlarini) tayyorlash Huquqni muhofaza qilish Federal o'quv markazida amalga oshiriladi. O'quv markazi Djordjiya shtatining Glinko shahrida joylashgan. O'quv markazida ta'lif 89 kunlik dastur asosida amalga oshiriladi. Bojxona va Chegara patruli ofitserlarini tayyorlash 105 soatlik amaliy mashqlarni va interaktiv ssenariylarni o'rgatishni, 7 soatlik trenirovkali amaliy testlarni, 8 soat yozma imtihonlarni va 23 ta darajalangan amaliy mashqlarni o'z ichiga oladi.

Barcha yangi Bojxona va Chegara patruli agentlarini (CBP agent) tayyorlash Chegara xizmati Akademiyasida (US Border Patrol Academy) amalga oshiriladi. Akademiya Nyu-Meksiko shtati Artezia shahrida joylashgan. Akademiyada tayanch tayyorgarlik 58 kunni tashkil qiladi.

Akademiyaga kolledj ma'lumotiga ega bo'lgan, sog'ligi tufayli yaroqli 18 yoshdan 40 yoshgacha AQSh fuqarolari yoki rezidentlari qabul qilinadi. Ular ispan tilini bilishlari (aksariyat davlat chegarasi Meksika bilan o'tgan), haydovchilik guvohnomasiga ega bo'lishlari, fitnes-testdan va narkotikga qarshi testdan o'tishlari kerak. Shuningdek, ulardan yolg'onne aniqlovchi detektordan o'tishlarini so'rashlari mumkin.

Akademiyada ayollar ham tahsil oladi. O'qish 5 ta bo'limdan, huquqshunoslik kursi, o'q otish tayyorgarligi, ispan tili, jismoniy tayyorgarlik va haydovchilik tayyorgarligidan iborat bo'lgan dastrudan tashkil topgan.

Huquqshunoslik kursi “Fuqarolik”, “Immigratsiya” to‘g‘risida Qonunlarni, Jinoiy va ma’muriy huquqni, Bojxona va chegara patruli vakolatlarini, huquqbuzarliklarni rasmiylashtirish va chegarachilarning aniq bir holatdagi harakatlanish tartibini o‘rgatishni o‘z ichiga oladi.

Shuningdek, amaliy ko‘nikmalarni egallash uchun chegara buzuvchilarini ushslash, hibsga olish, transport vositalari va binolarni ko‘rikdan o‘tkazish, birinchi tez yordam ko‘rsatish bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlarni o‘tkazish orqali amalga oshiriladi.

Asosiy e’tibor jismoniy tayyorgarlikka, chegara buzuvchilarini ta’qib qilish va ularni qo‘lga olish tartibiga, o‘q otish tayyorgarligiga, ispan tilini mukammal o‘rganishga qaratiladi.

Ispan tilini o‘zlashtira olmagan tinglovchilar yana 40 kunlik intensiv tayyorgarlikdan o‘tadi. Agar shu vaqt ichida ular ispan tilini o‘zlashtira olmasa, o‘qishdan chetlatiladilar. Tinglovchilar 2-3 kishilik yotoqxonalarda yashashadi, ular maoshi hisobidan kiyim-kechak bilan ta’milanadi yoki o‘zları harbiylashgan kiyim olib kiyishlariga ruxsat beriladi.

O‘quv xonalari va yotoqxonalar Internet tizimiga ulangan bo‘lib, tinglovchilar zamonoviy noutbuklar va boshqa o‘qitish texnik jixozlari bilan ta’milangan bo‘lib, kursant va tinglovchilar mashg‘ulotlarda keng foydalanishlari mumkin. Jismoniy tayyorgarlik mashaqqatlariga yoki psixologik sharoitlarga ruhiy tayyorgarligi past bo‘lgan tinglovchilar Chegara xizmati Akademiyasidagi o‘qishni davom ettirmasligi holatlari ham qayd etiladi.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, ko‘rib chiqilgan davlatlardagi chegarachi-mutaxassislarni tayyorlash jarayonlarining ham ijobiy, ham salbiy tomonlari mavjud. Ya’ni, Rossiya Federatsiyasi va Latviya Respublikasidagi chegarachilarni tayyorlash sobiq Sovet Ittifoqidagi tayyorgarlik tajribasiga o‘xshash. Yuqoridagi tahlil natijasidan kelib chiqib, aytishimiz mumkinki, O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlar Akademiyasida tahsil olayotgan “Motoo‘qchi va chegara qo‘sishlari taktik

qo‘mondonlik (chevara guruhlari)” bo‘yicha tahsil olayotgan kursantlarning o‘quv dasturlari va ushbu mutaxassislikga oid bo‘lgan amaldagi chevara qo‘sishnlari nizomlari, yo‘riqnomalar qo‘llanmalar hamda chevara qo‘sishlaridagi amaliy ko‘nikmalar aksariyati sobiq Sovet Ittifoqi tajribasidan olingan.

Shu bilan bir qatorda, chegarachi harbiy xizmatchilarning proffesional, nazariy, amaliy bilimlarini uzlucksiz oshirib borish, chevara xizmatini o‘tash va jangovar faoliyat davomida zarur bo‘ladigan tajriba va ko‘nikmalarni egallashi uchun ta’lim jarayonlarini tashkil etish bo‘yicha ilg‘or xorijiy tajribalarni chuqur o‘zlashtirish muhim ahamiyatga ega. Ushbu maqsadlarga erishish uchun birinchi navbatda yaxshi tayyorlangan chegarachi-mutaxassislarga ehtiyoj sezayotgan xorijiy davlatlarda ularni tayyorlash bo‘yicha ta’lim jarayoni, uning o‘ziga xosligi va samaradorligini o‘rganish zarur. Shundan so‘ng, bu ta’lim jarayoni bizning sharoitga mosligini, uni qanday qilib tatbiq etish imkoniyatlarini hal qilish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Foidalanilgan adabiotlar ruyhati:

1. Emmanuel Brunet-Jailly University of Victoria, Borderlands: Comparing Border Security in North America and Europe, 277-311p.
2. Nataliya Bhinder, Comparative analysis of border guards’ training in Ukraine and India., Journal of Defense Resources Management Vol.10, issue 1(18)/ 2019.
3. Умаров Р. Н., История становления и развитие подготовки специалистов служебного собаководства для пограничных войск в период конца IX-XX веков., Multidisciplinary Scientific Journal Educational Research in Universal Sciences ISSN: 2181-3515, Volume 2|Issue 3|2023,201-205 стр.
4. Гиль П. П. Применение однонаправленных тренировок в процессе физической подготовки у курсантов Института пограничной службы Республики Беларусь. Материалы международной научно-практической конференции на тему: Проблемы теории и практики пограничной безопасности.12.10.2022 г., 30-35 стр.